


*Qambar Ota*

# *Quyosh bola* *oy bola*

(she'rlar)



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2014

UO‘K: 821.512.133-  
KBK 84(50‘)7  
Q-20

### ***Qadrlı o‘quvchilar!***

O‘zbek bolalar adabiyotining taniqli vakili Qambar Otaning quvnoq, yumorga boy, mazmundor she‘rlarini, jarangdor va yoqimli qo‘shiqlarini, ravon yozilgan balladalarini, teran fikrli hayotiy dostonlarini qiziqish bilan o‘qib, ma‘naviy quvvat olgansiz, ruhiy olamingizni boyitgansiz.

Shoirning ona-Vatanga sadoqat, ota-ona va do‘stlarga muhabbat, bilim olishga qiziqish, go‘zallikka intilish, soflik va samimiyatni tarannum etgan asarlari bolalar uchun g‘oyat qadrlidir. Uning bu kabi she‘rlari uzoq yillardan beri boshlang‘ich sinf darsliklaridan joy olgan bo‘lib, o‘quvchilar bilimini oshirish, dunyoqarashini boyitishga xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu she‘riy to‘plam, aziz bolajonlarning dillaridan munosib joy oladi, degan umiddamiz.

---

## **JONAJON O‘ZBEKISTON**

Bunday ajib o‘lka qayda bor,  
Husni ertak, bag‘ri beg‘ubor.  
Turgan-bitgan hayrat, xushviqor,  
Ko‘rki jahon — O‘zbekistonim.

Har giyohi hayotbaxsh, qutlug‘,  
Tuproq‘i-chi mo‘tabar, ulug‘.  
Xalqi aylar yurtiga qulluq,  
Dong‘i doston — O‘zbekistonim.

Farzandlari faxrga to‘lgan,  
Manglayida quyoshi kulgan.  
Baxti mangu yo‘ldosh — yor bo‘lgan,  
Bag‘ri bo‘ston — O‘zbekistonim.

Gul umrini chulg‘ab istiqlol,  
Yer, osmonin quchgandir iqbol.  
Taqdirida nurli istiqbol,  
Yorqin chaman — O‘zbekistonim.

## **HILPIRA, BAYROG‘IM**

O‘zbekiston — Vatanim,  
Baxti kulgan chamanim.  
Bayrog‘i — qalb timsolim,  
Mening nurli iqbolim.

O'n ikkita yulduzing,  
Charaqlagan dil ko'zing.  
Osmonimda kulgan oy,  
Senga baxsh etgan chiroy.

Mustaqillik bayrog'i,  
Do'st — ahillik bayrog'i.  
Erkin yayrab hilpira,  
Quvonch tarab hilpira!

## **VATANNI KUYLAGAN DIL**

Qanday yaxshi, sayr qilib,  
Kezsak butun jahonni.  
Dunyo ko'rgan chin dildan  
Ardoqlaydi Vatanni.

Yurtning tabiatiga  
Termulamiz suqlanib.  
Har qadamda boqamiz  
Sehrlanib, ruhlanib.

Quloq tutib, zehn solib,  
Qushlar sozin tinglaymiz.  
Vatan madhin kuylagan  
Mitti dilin anglaymiz.

Ona yurtin madh etgan  
Qushlarga deymiz rahmat.  
Ona zamin sevgisi  
Keltirar baxt-u omad.

Bizlar iqbol qo‘shig‘in  
Kuylab boramiz dadil.  
Jahonda mangu go‘zal,  
Vatanni kuylagan dil.

## **MARD BOLAMAN**

O‘zimga bek mard bolaman,  
Kuch-u quvvatga to‘laman.  
Himmati baland bolaman,  
Mardligimdan shod bolaman.

Sevgan elim yuragimda,  
Ezgu yashnar tilagimda.  
Baxtli hayot so‘rog‘imda,  
Xalqimga hamdard bolaman.

Sadoqatli o‘g‘londirman,  
Tolemga posbondirman.  
Lafzi halol insondirman,  
Yurtimga madad bolaman.

Tug‘ilganman baxtim bilan,  
Vatan erki — ahdim bilan,  
Mangu o‘zbek xalqim bilan,  
Taqdirimdan shod bolaman.

## **VATANIM — TINCHLIK BOG‘I**

Ona xalqim yuragi,  
Umrimizning gulbog‘i,  
Sensan mehrim bulog‘i,

Hayotimning chirog'i,  
Vatanim — tinchlik bog'i.

Istagim shu jahonga,  
Yurt aylansin bo'stonga,  
Baxt kulsin har insonga.  
Do'stlik suyangan tog'i,  
Vatanim — tinchlik bog'i.

### **DO'STLIK JO'SHAR**

Salom, do'stim,  
Qo'lingni ber,  
Yaxshilikka  
Yo'lingni bur.

Ezguna bo'lsa  
Tilagingda,  
Do'stlik jo'shar  
Yuragingda.

### **MAY YAXSHI**

Vatanimda may kezar,  
Ko'kda kulib oy kezar,  
Bir ajib chiroy kezar.

Qir kuylar, dala kuylar,  
Goh yomg'ir, jala kuylar,  
Gul quchgan bola kuylar.

Tog'lar etagi alvon,  
Nur to'lib urar javlon,  
Lola qoplagan jahon.

Oylar ichra may yaxshi,  
Gullari, hay-hay, yaxshi!

## SAYYORA

Quyosh, oy, yulduz — osmon,  
Koinot, borliq, jahon.  
Besh qit'amiz jamuljam,  
Sayyora deb olgan nom.

Biz, farzandmiz — xizmatda,  
Sayyoramiz — izzatda.  
Barcha xalq bo'lsa posbon,  
Yashar dunyo tinch, omon.

## CHAMANIMNING GULIMAN

O'zbekiston chamanim.  
Men uning bir guliman,  
Bog'dagi bulbuliman.

Otam — bag'ri osmonim.  
Bellarining quvvati,  
Ko'zlarining nuriman.

Gul umrimning posboni,  
Yashnab kulsin hayoti,  
Oyimning jon-diliman.

## VATAN

Vatan mening  
Tanimdir.  
Tanamdagi  
Jonimdir.

Elni sevish  
Ahdimdir.  
Xalqim mening  
Baxtimdir.

## BAXTIM KULGAN

Jajji g'uncha, guldirman,  
Bog'dagi bulbuldirman.  
Sog'lom jon,  
Sog'lom tanman.  
O'zimcha bir jahonman.  
Hayotdan zavq olaman.  
Baxti kulgan bolaman.

## ARMIAMIZ MUSTAHKAM

Armiyamiz mustahkam,  
Xalqparvardir chinakam.  
Yurtimizda har askar  
Jasur, mard va xaloskor.

O'zbekiston o'g'loni,  
Bo'lib tinchlik posboni,  
Barcha ezgu insonni,  
Sharaflaydi jahonni.



## KICHIK CHEGARACHI

Men kichik chegarachi,  
Zimziyo tevaragim.  
Postda hushyor kezaman,  
Har sharpani sezaman.  
Hamma odam uxlasin,  
Mayli, olam uxlasin.



Yurt tinchligin saqlayman,  
Degan so‘zim oqlayman.  
Xalq baxti deb, sergakman.  
Vatanimga tirgakman.  
Yov kelolmas osmondan,  
Men tinchlikka posbonman.

## **BALAND UCHING, UCHUVCHILAR!**

Baland uching, uchuvchilar, baland uching,  
Poyoni yo‘q keng osmonga quchoq oching.  
Qo‘l yetmagan yuksaklarda omad quching,  
Baland uching, uchuvchilar, baland uching!

Osmono‘par tog‘lar qolsin ostingizda,  
Pag‘a-pag‘a bulut qolsin pastingizda.  
Tole hamroh bo‘lsin so‘l-u o‘ngingizda,  
Baland uching, uchuvchilar, baland uching!

Vatanimning temir qanot tulporlari,  
Izmingizda baxt-u tinchlik choparlari.  
Xavf-xatarsiz o‘tsin xizmat safarlari,  
Baland uching, uchuvchilar, baland uching!

Sizga bog‘liq yurtning hayot-mamotlari,  
Ochiq kulsin moviy osmon sarhadlari.  
Hech tolmasin po‘lat qushning qanotlari,  
Baland uching, uchuvchilar, baland uching!

## YURTPARVARLIK — MARDLAR ISHI

Urushni kim O‘ylab topgan. Duch kelganni Otgan, chopgan.	Boyiganin Ko‘rolmasdan, Fitnachilar Doim qasddan
Ota-ona, Bobolarni, Qon qaqshatgan Bolalarni.	Uyushtirib Turli tuhmat, Qilishmagan Zarra shafqat.
Yolg‘onchilar, Tekinxo‘rlar, Yo‘lto‘sar-u Mushtumzo‘rlar.	Aralashgach Ishga bo‘hton, Ne yuraklar Bo‘lgan vayron.
Halol yashash Yoqmaganlar, Urushlarni Yoqlaganlar.	Urushqoqqa Qo‘l bermasdan, Asablarga Yo‘l bermasdan.
Kimga agar Kulib omad, Tinch mehnatdan Topib shuhrat.	Tinch yashamoq Ko‘ngil hushi, Yurtparvarlik Mardlar ishi.

## AYTGANLARIM LOF EMAS

Har kim ko‘nglidagini  
Yaxshi to‘kib solgani.  
Sizga aytar gapimning  
Yo‘qdir aslo yolg‘oni.

Burib kelgan naslimiz  
Ezgulikka zamonni.  
O‘zim ko‘zlab turibman  
Baxtimizga osmonni.  
Oyog‘imning tagida  
Yerdan boshqa narsa yo‘q,  
Naq yelkamga tirmashgan  
Quyosh, oy-u, yulduz, ko‘k.  
Bulutlarni yelkamga  
Ko‘targanman erkalab.  
Quyosh qo‘nar boshimga  
Baxt qushiday ertalab.  
Qayga yursam, izimdan  
Ketaverar ergashib.  
Erkalanib bag‘rimga  
Nurin tarar engashib.  
Ertadan to kechgacha  
Birga yurib toliqar.  
Mehrimga nuridan mador —  
Quvvat olib qoniqar.  
Dunyo tashvishin menga  
Ishonib u oltin bosh,  
Ufqdagi yotog‘iga  
Uxlagani qo‘yar bosh.  
Tun cho‘kkanda navbatni  
Egallaydi ko‘kda oy,  
Degan kabi menga u:  
„Omonmisan, bolatoy“.  
Oyning oppoq shu‘lasin  
Tutib olib qo‘limda,  
Sharday uni yetaklab  
Boraman o‘z yo‘limda.

Bo'lsa ham u osmonning  
Olti qavat qa'rida,  
Chizig'imdan zarra ham  
Chiqmas aslo nariga.  
Yursam — yurar, to'xtasam —  
U ham taqqa to'xtaydi.  
Men uxlasam, tepamda  
Qimirlamay uxlaydi.  
Buvim der, har odamning  
Bo'lar emish yulduzi.  
Go'yo menga tikilgan  
Olam yulduzin ko'zi.  
Barchasi ham nazdimda  
Mendan najot istaydi.  
Qorong'ida miltillab  
Go'yo madad istaydi.  
Menga umid bog'lagan  
Faqatgina ko'k emas.  
Ochilmagan noma'lum,  
Sirli fanlar yo'q emas.  
Oyog'imning tagida  
Aylanadi tinmay Yer.  
— Yerjonim, sen tinch bo'lgin,  
Deb to'kaman doim ter.  
Ezgulikni yurakka  
Tugib kichik yoshimda,  
Yerni globus qilib  
Ko'taraman boshimga.  
Men bir butun Yerimni  
Yong'inlarga bermasman.  
Qo'limdagi zaminni  
Qirg'inlarga bermasman.

Umid ko‘zin chaqnatib,  
Termuladi keng jahon.  
Hayot haqqi, taqdirin  
So‘raydi bizdan zamon.  
Kunduz — Quyosh, tunda — Oy,  
Yulduzlarday ishlashim,  
Yerday tinim bilmasdan  
Zarur fikrim peshlashim.  
Ko‘hna zamin dardiga  
Chora izlashim kerak.  
Dunyoga chiroq bo‘lsin  
Mendagi nurli yurak.  
Aytganlarim lof emas,  
To‘p-pa to‘g‘ridir bari.  
Osmon ham ko‘ksimizda,  
Dilimizda Yer shari!

## MUSTAHKAM OILA

Oilamiz mustahkam,  
Ahdida sodiq, mahkam.  
Ajb, chiroyli gulshan,  
Yashnagan suyuq Vatan.

Ostonasi muqaddas,  
Ozoda, pokiza, soz.  
Olamiz erkin nafas,  
Dillarda mehr, ixlos.

Otamlar tayanchimiz,  
Onamlar quvonchimiz.  
Jonday shirindir ukam,  
Qadrli opam, akam.



Uyimiz nurga to‘la.  
Baraka, qo‘rga to‘la.  
Oilamiz charog‘on,  
Yashaymiz shod, farovon.

## **ALIFBE BAYRAMI**

„Alifbe“ni bilib oldim,  
Endi navbat „O‘qish“ga.  
Kitobimga do‘st tutinib,  
Ega bo‘ldim „to‘rt“, „besh“ ga.

Zehnim qo‘yib, sabot bilan  
Jilo berib harflarga,  
To‘g‘ri, aniq ko‘chiraman,  
Har bir so‘zni daftarga.

Qiynalmasdan takror o‘qib,  
She‘r, qo‘shiqlar yod olib,  
Alifbejon bayramini  
O‘tkazamiz shodlanib.

## **QALAM DEYDI**

Qalam deydi:  
Yozavergin,  
Ilm konin  
Qazavergin.

Faqat meni  
Sindirmagin.  
Ayab, aslo  
Tindirmagin.

Qog‘ozlarda  
Izim bo‘lsin.  
Elga aytgan  
So‘zim bo‘lsin.

## QUYOSH BOLA, OY BOLA

Boy bola-yu, boy bola,  
Quyosh bola, oy bola.  
Poklardan ta'lim olar.  
Sog'lardan ta'lim olar.

Yarashib ilm-u hunar,  
Iqboli yashnab kular.  
Olgani olqish bo'lar,  
Dilda ezgu ish bo'lar.

Eliga ko'z-qosh bo'lar,  
O'n yoshida bosh bo'lar.  
Niyati buyuk bo'lar,  
Xalqiga suyuk bo'lar.

Boy bola-yu, boy bola,  
Quyosh bola, oy bola.  
Tengidan ustun bola,  
Zehni tez — butun bola.

O'qir, yozar, o'y surar,  
O'y-fikrida kon ko'rar.  
Kundan kunga boy bo'lar,  
Topgani chiroy bo'lar.

Boy bola-yu, boy bola,  
Quyosh bola, oy bola.

## **BIRINCHI QO'NG'IROQ**

Mehr quyoshi maktabda,  
Bilim ol deb kitobdan,  
Xabar berib odobdan,  
Yangra, yangra, balandroq,  
Ey, birinchi qo'ng'iroq!

Zavq baxsh etib yurakka,  
Javob ayt har so'roqqa.  
Yetkazdim deb tilakka,  
Yangra, yangra, balandroq,  
Ey, birinchi qo'ng'iroq!

Kimki ilmga chanqoq,  
Hayotdan olsa saboq.  
Bir umr bilmas mudroq,  
Yuragi senday yangroq,  
Ey, birinchi qo'ng'iroq!

## **NAVOIYLIK BOLALAR**

Navoiylik bolalar  
Navoiyning she'ridan  
Madad olgan, kuch olgan  
Nurotaning nuridan.

Tillaga boy Zarafshon,  
Topgan yurtida sharaf-shon.  
Karmananing tarixi  
Aylar dilni nurafshon.



Navbahor-u Konimex,  
Uchquduqlik bolalar,  
Xatirchilik, tomdilik —  
Yurtsevar mardonalar.

Olamga nom taratgan  
Ulug' Navoiy shahri,  
Ko'pmillatli chamanda  
Ochilar dillar bahri.

Suyuk viloyatidan  
Kayfiyati a'lolar,  
Barkamollik kashf etar  
Navoiylik bolalar.

## **BAHORGA YORDAM**

Bahor yurtni yashnatib,  
Gullatishga shoshilar.  
Hayotsevar bolalar,  
Bahorjonga qo'shilar.

Ariqchalar kuylaydi:  
Taralla-yu taralla...  
Tekislangan yeriga  
Dehqon urug' saralar.

Mayin iliq nafasdan  
Jon kirar har ko'chatga.  
Yerni ona-tabiati  
Burkar maysa, ko'katga.

Chiroy qo'shib bog'larga,  
O'g'il-qizlar gul yashnab,  
Yordam berar bahorga,  
Ekinlarni tarashlab.

## SEL



Yomg'ir tez-tez shivalar,  
Do'l, sel yerni savalar.  
Chaqmoqlar gumburlar,  
Larzada o'ngirlar.

Bilib qo'y, sir emas,  
Barcha suv bir emas.  
Yodingda tut faqat,  
Sel tohsa beshafqat...

## YAPROQLAR

Nur emishib quyoshdan  
Yaproqchalar yayraydi.  
Bu quvonchga qo'shib  
Shoxda qushlar sayraydi.

Zumrad, yashil tovlanib  
Shovullaydi bog'larda.  
Soyasiga chorlaydi  
Kun qizigan chog'larda.

Bizlar uchun chang yutib  
Tozalaydi havoni,  
Ko'zimizga yashnatib  
Ko'rsatadi dunyoni.



## QIZG'ALDOQLAR

Qizg'aldoqlar bahorda  
Tog' bag'riga yetibdi.  
Tarnovlardan nahorda  
Tomga chiqib ketibdi.

Tortib ohanrabosi,  
Yosh yuraklar choparlar.  
Go'zallik muddaosi —  
Cho'g'dayidan toparlar.

Dillarni etib mushtoq,  
Alvonlanib to'lg'onar.  
Mehr tarab, topib ardoq,  
Adirlarda cho'lg'onar.

Davra olib o'ynashar,  
Poylarida ol ranglar.  
Shodon qo'shiq kuylashar,  
Taralar shox ohanglar.

O'tday yonar tog'larda  
Qizg'aldoqlar, lolalar.  
So'lim bahor chog'larda  
Gulday yashnar bolalar.



## **BULBULJON**

Buncha shirin ovozing,  
Bulbuljon.  
Vatanda yangrar sozing,  
Bulbuljon.

Kuylaganda yonasan,  
Bulbuljon.  
Yurt ishqidan qonasan,  
Bulbuljon.

Chamaningda yayrab kul,  
Bulbuljon.  
Quvvat olsin har bir dil,  
Bulbuljon.



Gulday Vatan qalbingda,  
Bulbuljon.  
Mangu omon bag'ringda,  
Bulbuljon.

Dilda sadoqatingdan,  
Bulbuljon.  
Baxt, kuch saodatingdan,  
Bulbuljon.

### **TO'RG'AY QO'SHIG'I**

To'rg'ayman-o, to'rg'ayman  
Cho'l gashtini surgayman.  
Oftobda g'am yemasman,  
Soyaparvar emasman.

Quyosh yonar, qaynayman,  
Nur qo‘ynida yayrayman.  
Olov ichra o‘ynayman,  
O‘tli qo‘shiq kuylayman.

Umrim o‘tar mardona,  
Chanqash menga begona.  
Tolmay, kuylab yonaman,  
Qo‘shig‘imdan qonaman.

To‘rg‘ayman-o, to‘rg‘ayman,  
Cho‘l gashtini surgayman.  
Nurni sevgan zo‘r qushman,  
Yer-u ko‘kda hur qushman!

## **TUSHIMDA QUSH KO‘RDIM**

Bir ajib tush ko‘rdim,  
Yelkamda qush ko‘rdim.  
Yurakdan yoqtirdim,  
Men uni xush ko‘rdim.

Bir sirli o‘ynardi.  
Bir sirli yayrardi.  
Sehrli ohangda  
Bir shirin sayrardi.

Patlari jiloli,  
Qanoti tilloli.  
Edi yuz maqomda  
Boqishi jilvali.

Ilhomda yondi u,  
Gapimga ko‘ndi u.  
Baxt qushi ekanmi,  
Boshimga qo‘ndi u.

## ONAJONIM OQ SUTI

Bu jahonda onamning  
Mehri ulkan, bag'ri keng.  
Sehri oq sutiga  
Hech bir narsa kelmas teng.

Hayot olib ko'ksidan,  
To'yib-to'yib emganman.  
Shu sababli ko'ngli oq —  
Bo'lib o'sib-unganman.

Onajonim oq suti  
Balolardan asragan.  
Yomon kunda yuragi  
Qarolardan asragan.

Onajonim oq suti,  
Dilimni pok aylagan.  
Oydin qilib umrimni,  
Yo'limni oq aylagan.

## KAPTARLAR

Oq kaptarim, oq kaptar,  
Hayotda ko'rmang xatar.  
Ko'k kaptarim, ko'p kaptar,  
Bo'lishib to'p-to'p kaptar.

Keng osmonni to'ldirib,  
Jahonni shod kuldirib,  
Guvillab chax-chax uring.  
Zavqqa to'lib charx uring.




Yayrang, tole qushlarim,  
Farishtali qushlarim.  
Siz tinchlikning jarchisi,  
Yaxshilik ilhomchisi.

Oq kaptarim, ko'k kaptar,  
Baxtga siz mangu xushtor.  
Hammani hang-mang eting,  
Dunyoni xandon eting.

### TO'RT FASL

Vatanimda to'rt fasl —  
Biri biridan asl.  
Qish qori qandga o'xshar.  
Muzi novvotga o'xshar.  
Bahorning ko'kati,  
Har bir mitti ko'chati  
Tanga quvvat baxsh etar.  
Sog'lom qudrat naqsh etar.  
Quyoshda yashnab yozi,  
Qilar el-xalqni rozi.



Kuzida quvnar tole —  
Olma, o'rik, shaftoli...  
Turli-tuman asali  
Bir-biridan mazali.  
Bunday yurtda muttasil,  
Yetilar dono nasl!

## **BOYCHECHAGIM**


Boychechagim, boychechak,  
Kulib chiqqan oychechak.  
Bahorda qir-dalamga,  
Qo'shasan chiroy chechak.

Husning emas bir onlik,  
O'zing ezgu — omonlik.  
Har kim ko'ziga surtar,  
Ko'rmaylik deb yomonlik.

Tun-kun nurga intilding,  
Qish qahrin tashlab kelding.  
Dillarda qadring baland,  
Bahorni boshlab kelding.

## **QALDIRG'OCH**

Qanotida bahorni  
Olib kelgan qaldirg'och,  
Hovlimizga quvnab kir,  
Sim-sim sehring tezroq och.





Ayvonimiz shiftiga  
Mahkam o‘rnash, baxt qushim.  
Nozik ezgu niyatli —  
Yaxshilikka ahd qushim.

Boshimizning ustida  
Qanot qoqib o‘ynagin.  
Hayotingdan minnatdor  
Vijir-vijir kuylagin.

## **UCHIB KELDI QUSHCHAMIZ**

Kun isib qor eridi,  
Uchib keldi qushchamiz.  
Sayroq kuyin eshitib,  
Zavqqa to‘ldik barchamiz.

Qo‘shig‘ida derdi u:  
— Keldim, do‘stlar, yiroqdan.  
Mehr bayon ayladik:  
„Sog‘inganmiz yurakdan“.

Gapimizni tushunib,  
Yayrab egildi boshi.  
Miltirab oqib tushdi,  
Ko‘zidan quvonch yoshi.

## SUV QADRI

Suv — yorugʻlik,  
Suv — hayot.  
Suvdan umr davomi.  
Baxsh etib zoʻr kayfiyat,  
Tozalaydi hawoni.

Xalq hikmati: tomchida  
Yorqin quyosh aks etar.  
Suvning qadrin bilganlar  
Murodiga tez yetar.

Suv sababli chiroyin,  
Ochadi jumla-jahon.  
Suv muqaddas non-tuzday,  
Olamni saqlar omon.

Bilib qoʻying, doʻstlarim,  
Unutmangiz hech qachon.  
Suvni qadrlay olar,  
Dunyoda faqat inson.

Mitti giyoh, hasharot,  
Tuproqdan to toshgacha,  
Dov-daraxt-u hayvonot,  
Koʻkda uchar qushgacha.

Odamzodga bir umr  
Yashash uchun suv kerak.  
Suvdir umr yoʻlini  
Yorituvchi zoʻr chiroq.

## PAYVAND QILDIK

Dehqonchilik qilay, dedik  
Chiqib bo‘z yer, yaydoqqa.  
Chinni tarvuz urug‘ini,  
Payvand qildik yantoqqa.

Bobom dedi: kerak emas  
Suv ham, zarra dori ham.  
Har tarvuzning shirinligi  
Asaldan hech bo‘lmas kam.

Hayron qoldim, yantoq ta‘mi  
Tarvuzlarga o‘tmasmi,  
Po‘chog‘idan son-sanoqsiz  
Tikan o‘sib chiqmasmi?

Yurakdan mehnat qilsang,  
Tikan so‘lib qolarkan.  
Yantoqning shakarini  
Tarvuz so‘rib olarkan.

## YOZ KELDI

Yoz keldi-yu, yoz keldi,  
Kunlar nurli, soz keldi.  
Quyosh jilmayib boqar,  
Yuragidan o‘t yoqar.  
Olam sirli doshqozon...  
Daraxt, ko‘chatlar larzon —  
Egilib turar bazo‘r,  
Shira-sharbati huzur!  
Asalday meva pishdi,



Tagiga tap-tap tushdi.  
Biliq-biliq qaynar, ajabo,  
Xush bo'y tarab murabbo.  
Ko'z quvnatar sabzavot,  
El farovon, yurt — obod.  
Tarvuzlarni kosa qil,  
Qovunga boq, maza qil.  
Salqin bedapoyaga,  
Ko'rpacha sol soyaga.  
Yoz yozadi dasturxon:  
Rohat qilar har bir jon.

### **CHIROYLI YOZ**

Qumga harflar yozishib,  
Bilim konin qazishib,  
Ko'ksin kerib, G'oz dedi:  
— Mening xatim soz, dedi.  
Lapanglab, dedi O'rdak:  
— Mening xatim zo'r, o'rtoq.  
Sen-chi, odat qil Xo'roz,  
Ma'noli, chiroyli yoz!

### **RASM DARSIDA**

O'qituvchi der, — G'ani,  
chizgan surating qani?  
— Juda qilyapti alam,  
sinib qoldi-da qalam.

## YECHGAN EDIM

Ukasining Alisher  
Daftarini ko'rib der:  
— Qilsang agar hafsala,  
Yechilardi masala.  
O'ylab ukasi dedi:  
— Kallamda yechgan edim.

## KECH KUZ

Kech kuz. Hamma tashvishda  
Kunduzdan to shomgacha.  
Qishlik yig'ish o'yida  
Ish to'xtamas tonggacha.

Daraxtlar og'ushidan  
Uchar tilla tangacha.  
Qishni qo'msab, zorlanib,  
Qag'illaydi qarg'acha.

Chumolilar don tashir,  
Ulgursak deb qorgacha.  
Pichan ortib ustiga  
Yo'lga tushardi toycha.

Quvonchidan manzilga  
Yelday yelar yo'rg'acha.  
Faqat uxlar boychechak  
To erta bahorgacha.

## CHANOQLARDA KULGANINGDA

Oyday bo‘lib to‘lganingda,  
Chanoqlarda kulganingda,  
Dalam to‘la paxtam, desam,  
Yarashadi baxtim, desam.  
Har tolangda cheksiz imkon,  
Jonday ko‘rib, sevar dehqon.  
Kamolingga qo‘yib mehr,  
Der paxtada ko‘pdir sehr!  
Yuraklarda jo‘shib hurmat,  
Ko‘rgan deydi, qursam suhbat,  
Paxtakorning bag‘ri ko‘p keng,  
Har chigiting quyoshga teng.  
Nasibamiz butun qilgan,  
Qo‘limizni ustun qilgan,  
O‘zing omad taxtim mening,  
Ey, yarashgan baxtim mening!

## CHIROY BAXSH ETAR

Lo‘ppi momiq paxtani  
Olam yaxshi ko‘radi.  
Dunyodagi jamiki  
Odam yaxshi ko‘radi.

Oppoq paxta o‘xshaydi  
Oqko‘ngilli odamga.  
Saxiy qalbin doimo  
Ochar butun olamga.



Mehr qo'ysang agarda  
Hosil to'la ko'rakka.  
Dilga umid to'ldirib,  
O'xshar go'zal yurakka.

Oqibatda xalqiga  
Bisotini baxsh etar.  
Odamlarga go'zallik,  
Yurtga chiroy naqsh etar.

### **DO'STLIK KERAK**

Do'st so'zining ma'nosi  
Ma'nolarning a'losi.  
Do'st-la inoq degani,  
Yaqin o'rtoq degani.  
Qalbi chiroq degani,  
Toza yurak degani.  
Aslida-chi, asl do'st  
Hech ajralmas mag'iz, po'st.  
Do'st mushkulini oson —  
Qilishni istar inson.  
Olam to'lsin ziyoga,  
Do'stlik kerak dunyoga.

### **O'YLAYMAN**

Doim tolib xayolga,  
Ko'p narsani o'ylayman.  
O'ylaganda zavqlanib,  
Ich-ichimdan kuylayman.

Ezgulikni o‘ylashdan,  
Bir lahza ham tolmayman.  
Yomonlikni o‘ylagan,  
Odamni tan olmayman.

## YONLARIGA CHOPAMAN

O‘rtoqlarim maydonchada,  
Kutar meni har doim.  
Bir oz o‘ynab kelay desam,  
— Ehtiyot bo‘l, — der oyim, —  
O‘ynamagin Ali bilan,  
Juda yomon bola u.  
O‘ynamagin Soli bilan,  
Qitmir, ko‘zi ola u.  
„Shermat qanday bola?“ desam,  
— Yaqinlasha ko‘rma, — der. —  
Ermat irkit, to‘palonchi,  
Yonida hech yurma, — der.  
O‘ylayman, boshim qotar,  
Ayting, o‘ynay kim bilan.  
O‘zim yaxshi bolamanmi,  
O‘ynaymi o‘zim bilan?  
Oyijonim gaplariga,  
Goh ichimda xafaman.  
Do‘stlarimni ko‘rsam, darrov  
Yonlariga chopaman.



## SARISHTA QIZ

Mehnatsevar sarishta qiz,  
Ozoda-yu farishta qiz.  
Yulduz misol charaqlaydi,  
Uy chinniday yaraqlaydi.  
A'lo o'qir maktabida,  
Hamma xursand odobidan.  
Oyisiga yordamchi qiz,  
Otasiga ilhomchi qiz.  
Tillaridan tomar asal,  
So'zlarini deysiz g'azal.  
Kelib dildan havasingiz,  
Toshib mehr, ixlosingiz,  
So'roqlaysiz: — „Kimning qizi?“  
Bunday qizlar elning qizi.


## VIJDON QIYNASA

Tan olaman o'ylamay  
Qilgan xatomni.  
Yomon ekan qiynasa  
Vijdon odamni.  
Nahotki, men shunchalik  
Bo'lsam hayotda.  
Eslasam, qizaraman  
Hozir uyatda.  
Hech sababsiz Qobilni  
Bo'lar-bo'lmasga,  
Do'pposlab, peshanasin  
Qilgandim qashqa.  
Bildirmasdan boshiga  
Chertganim ham rost.

Zo‘ravonlik qilib goh  
Turtganim ham rost.  
Yana, uni xohlagan  
Paytimda qiynab,  
Hech narsa bo‘lmaganday  
Yurardim o‘ynab.  
Ammo bir kun  
Daraxtdan yiqilganimda  
Meni chin dildan ayab,  
Naq uyimgacha olib  
Kelgandi suyab.  
Menga nima balo  
Bo‘ldiykin o‘zi,  
U payt qayda ekan  
Aqlim ham ko‘zim?  
Urganimda bir qizni  
Sochidan tortib,  
Qobilning ketdi birdan  
Nafrati ortib.  
Nazarimda dev misol  
Qaddini rostlab,  
Baquvvat qo‘li bilan  
Yoqamdan ushlab,  
Va dedi u „Urmayman,  
Ojizlarni hech.  
Zo‘ravonlikni tashla,  
Bo‘lmasidan kech.  
So‘ngra u dadil turib,  
Menga tik boqdi,  
Ko‘nglimga mehr-shavqat,  
Chirog‘in yoqdi.  
Bu voqea bo‘ldi menga  
Bir umrlik dars.

## SOAT

Har bir kunni bo‘lib-bo‘lib,  
Yigirma to‘rt soat qilib,  
Rejasini tuzib olgan,  
Hisobini chizib olgan.  
U der, — Vaqt asl-qimmat,  
Vaqt — umr,  
Vaqt — hayot.  
Yugurganday baxt izidan,  
Yuguramiz vaqt izidan.  
Kim mehnatni sevsa chindan,  
Vaqt qochmaydi aslo undan.  
Ishimizga doim shaymiz,  
Vaqtni yuvosh jilovlaymiz.  
Chiqmaydi u izimizdan,  
Biz ham shodmiz, u shod bizdan.  
Qadrlaymiz vaqtimizni,  
Vaqtdan topdik baxtimizni!



## EZGULIK QILAY DEB

Katta bo‘lsam eng avval  
Vatanimni quchaman.  
Ezgu ishlar qilay deb,  
Keng osmonga uchaman.

Oq bulutdan tog‘ qilib,  
Tog‘siz yurtga yo‘llayman.  
Ko‘k bulutdan bog‘ qilib,  
Bog‘siz yurtga yo‘llayman.

Tumandan ummon qilib.  
Suvsiz yurtga yo‘llayman.  
Naq quyoshdan non qilib,  
Nonsiz yurtga yo‘llayman.

Dunyoga mehr to‘la  
Erk-u iqbol tilayman.  
Shu maqsadda osmonga  
Yuragimni ulayman.

## TO‘LQINJON


O‘zi yerda-yu  
Aqli quyoshda,  
Sirlil jumboqlar  
Yechilar boshda.

Ongim yuksakka  
Uchirsam deydi,  
Qalxim quyoshga  
Ko‘chirsam deydi.

Shunday o‘ylaydi  
To‘lqinjon tinmay.  
O‘qir kitobni  
Qo‘lidan qo‘ymay.

## MUZ NEGA YIQITADI?

Karimjon juda hayron:  
Muz nega yiqitadi?  
Toyg‘anish-ku maza-ya,  
Yiqilish qo‘rqitadi.  
Muzni ko‘rgani zamon  
Qiziqib, toya boshlar.  
Gurssa-gurssa yiqilish,  
Ba‘zan ko‘zini yoshlar.



Go'yo toymasa bo'lmas,  
Ko'ngli yana toy, deydi.  
Har safar yiqilganda  
... Og'ridi, voy-voy, — deydi.  
Muz der: „Uyalmaysanmi,  
Vaqting bekor sarf bo'lar.  
Chorakda „ikki“ chiqsa,  
Toyg'anish benaf bo'lar.  
Men-ku, bahor kelganda  
Tezda erib ketaman.  
Ammo o'yinqaroqqa  
Jazo berib ketaman“.

## UNUTMAYMAN

Ilk marta partaga  
Sekin o'tqazib,  
Jajji qo'lgina  
Qalam tutqazib,  
Menga harf tanitgan  
Qalbi jahonni,  
Unutmayman aslo  
O'sha insonni.  
Onamday mehribon  
Tutib o'zini,  
Yozishni o'rgatgan  
ONA so'zini.  
Degan, — mana bunday  
Yozilar „OTA“,  
Doim yodingda tut,  
Bu aziz „VATAN!“  
Shu kichik zehnimda

Taratib ziyo,  
Yorishganday bo'ldi,  
Bag'rimda dunyo.  
So'ng ko'p so'zlar yozdim:  
„SADOQAT, TINCHLIK!“  
Dilimga quyildi,  
„HALOLLIK, DO'STLIK.“  
Doim yuragimda  
Ulug' muhabbat.  
Birinchi muallim  
Sizga ming rahmat.

## O'ZINGIZDAN O'RGANAR

Tinchlik g'unchalarining  
Sohibkor bog'bonisiz.  
Kelajak chamanzorin  
Ishongan posbonisiz.

Jajji qa'blar nur olar  
Mehringiz ziyosidan.  
Tiniqib, polanadi  
Ilm, odob dunyosidan.

Vatanga sadoqatni,  
Xalqqa mehribonlikni,  
Halollik, bag'ri kenglik,  
Do'stga mehri konlikni.

Har bitta darsingizda  
Ayilgan o'zingizdan,  
O'rgandik insonlikni  
Muallim. o'zingizdan!

## **GAPINI TINGLASA**

Baliqlar nega jim,  
Chiqarmas biron tovush.  
Sababini bilar kim —  
Quvonmas,  
Qilmas nolish.  
Birov so‘zin tinglasa,  
Hammani qilib hayron,  
Ichidagin anglasa —  
Gapirar edi biyron:  
Katta baliq kichigin  
Yamlamay yutganini,  
Baliqchilar ayovsiz  
To‘r bilan tutganini.  
Begunohdan begunoh.  
Ilintirib qarmoqqa,  
Qanchasin dimlab, tuzlab  
Qovurganini yog‘da...  
Agar kimdir qo‘llasa,  
Gapi bor olam jahon.  
Dardini yutib yashash  
Ularga emas oson.

## **SHUDRING**

Qatra-qatra mitti jonsan,  
Himmati zo‘r pahlavonsan.  
Tunda changni quvib chiqding,  
Maysalarni yuvib chiqding  
Olmos shudring, tolmas shudring.  
Har bir qatrang sehriga kon,

Muruvvat-u mehrga kon.  
Senda aksin ko‘rar jahon.  
Tizimlaring marjon-marjon,  
Olmos shudring, tolmas shudring.  
Ezgulikning avval boshi,  
Ko‘katlarning quvonch yoshi.  
Gul faslining madorisan,  
Tabiatning hamkorisan.  
Olmos shudring, tolmas shudring.


### **MAZA QILIB YURADI**

Devorda yo stolda  
Chiq-chiqlaydi soatlar.  
Uchay desa ucholmas,  
Ularda yo‘q qanotlar.  
Ammo, qiziq, odamlar  
Soatni yuradi, der.  
Soatlar-chi, vaqtning  
O‘lchovi — yuragi der.  
Bunday o‘ylab qarasa,  
Soatlarga ko‘p qiyin.  
Yurish uchun ularga  
Oyoq chiqarmi keyin.  
Aslida-chi, qo‘llarga  
Taqib qo‘ysa turadi.  
Odamlar yurgan chog‘da  
Maza qilib yuradi.



## MUSHUGIMNING ODATI

Mushugimning odati,  
Menga ma'qul emas hech.  
Sichqonlarni o'g'ri deb,  
Poylab yurar erta-kech.  
Na ishonchni oqlar u,  
Na foydali ish qilar.  
Men halol yashayman deb,  
Ko'krak kerishni bilar.  
Payt poylab, go'sht o'g'irlab,  
Mushuk qorni to'ygan dam,  
Sichqonlarga boqmaydi,  
Hurullab uxlar beg'am.  
Maqtamagin o'zingni,  
Mushukvoy, sen tekinxo'r.  
Oqlab sen o'z so'zingni,  
Sichqonni bir tutib ko'r.




## SVETOFOR

Men agarda yonsam qizil,  
Yo'lda aslo qilmang hazil.  
Taqqa to'xtang, shosha ko'rmang,  
Joyingizdan aslo jilmang.  
Sariq ko'zim chaqnaganda,  
Hushyor bo'ling o'sha onda.  
Qolmangiz deb mahtal bo'lib,  
Yashil ko'zim chaqnar kulib.  
O'tavering, yo'l keng ochiq,  
Turay sizga shu'la sochib.  
Porloq bo'lsin yo'llaringiz,  
Nurga to'lsin dillaringiz.

Yo'lovchiga men baxt tilab,  
Erta-yu kech oq yo'l tilab,  
Xushyorlikka doim yorman,  
Sizga sodiq svetoforman.

## TOVUS



Patlarini yoyib tovus,  
Chiroyini ko'z-ko'zlar.  
Nega xunuk oyog'im, deb  
Ich-ichidan goh bo'zlar...  
O'ylamaski, qaddin tutib  
Yurmasa shu oyoqda,  
Go'zallig-u shuncha husn,  
Tahsin unga qayoqda.

## AFSONA

Qo'rqmayman jin, shaytondan,  
Cho'chimayman devdan hech.  
Uch boshli ajdahoga  
Bilagimda yetar kuch.  
O'ylayman, tik kelsa bas,  
Bo'lsa ham dinozavr.  
Shu lahzada,  
Shu damda  
Uchratsam bo'lardi zo'r.  
Yo'q uchramas!  
Ular-chi,  
Afsona-yu puch ekan.  
Botirlarga yo'lamas,  
Qo'rqqoqlarga o'ch ekan.

## XARXASHACHI

Demas endi  
U „inga“.  
Ammo doim  
Der — menga!  
Aslo ko‘zi  
To‘ymaydi.  
Shu qilig‘in  
Qo‘ymaydi.  
Kiyimi ko‘p  
Bo‘lsa ham,  
Ko‘rinadi  
Unga kam.

Singlisining  
Paypog‘in,  
Akasining  
Qalpog‘in  
Yig‘lab tortib  
Oladi.  
Dodlab yotib  
Oladi —  
Qilar doim  
Xarxasha,  
Ko‘rsatadi  
Tomosha.

## KULGULAR

*(Hazil)*


Birov kular  
Shiringina jilmayib,  
Birov kular  
Miyig‘ida iljayib.  
Kimdir kulsa,  
Yosh chiqadi ko‘zidan.  
Qattiq kulib  
Ketar kimdir o‘zidan.  
Kelmasa ham  
Kulishning zo‘r xonasi,  
Yelkan kabi  
Silkinadi tanasi.

Ayting unga,  
Jar yoniga borganda,  
Kulsa yomon,  
Chiqayin deb armondan.  
Qulab tushib,  
Bo‘lib qolsa gar mayib,  
Zo‘r kulolmas  
Ketganda ham sog‘ayib.

### TOVUQLAR YOTOG‘I

Tovuqlarning yotog‘ida  
Mehmon bo‘lib tuyaqush,  
Parrandalar hayotiga  
Achinib, der boyaqish:  
— Yotog‘ining kir-chirligi  
Keltiradi g‘ashimni.  
Qorong‘ida tursang, shipdan —  
Tinar ekan boshingni.

### CHUMCHUQLAR



Chumchuqlarni beozor,  
Begunoh deb yurardim.  
Yuragimga yaqin olib,  
Chin do‘stimday ko‘rardim.

Rahm-shafqat bilmas ekan  
Qotil xanjartumshuqlar.  
Ko‘rib hayron qoldim, yovuz,  
Mechkay ekan chumchuqlar.

Eh, mehnatkash chumolilar  
Donlarini talashib,  
O'zlarin ham yeb qo'yishdi  
Bir zumda cho'qilashib.

## **AQLLI BARMOQLAR**

Besh og'ayni —  
Besh barmoq,  
Ahillikda  
Esh barmoq.

Jam bo'lishib,  
Tenglashar.  
Burchlarini  
Anglashar.

Mahkam turib  
Ahdida,  
Qo'l uradi  
Naqdiga.

Mehnat qilib  
Hech tolmas,  
Tutganini  
Qo'yvormas.

## **NEGA YAYRAB KO'PAYMAYDI**

Nega yovuz hayvonlarni,  
Biz himoya qilsak ham,  
Aslo yayrab ko'paymaydi,  
Haligacha juda kam.

Balki ular baxillikdan,  
Tez qirilib ketgandir.  
Har birining yovuzligi,  
O'z boshiga yetgandir.

## **TOG' FAXRI**

Ey, baland tog',  
Baland tog'.  
Viqorlisan, ko'ngling chog'.  
Cho'qqilaring doim qor,  
Toshdan boshqa nimang bor?  
U der: „Bag'ri kon tog'man,

Boylikka makon tog‘man.  
Atrofimdir xushhavo,  
Qushlarim kuylar navo.  
Daraxtzor-o‘rmonim bor,  
Entikib baxtdan bedor,  
Ko‘ksimda qaynar buloq,  
Chanqamas biron giyoh.  
Bir umr bag‘rim ochiq,  
Rizq-u nasiba sochiq.  
G‘ururim zo‘r jahonda,  
Boshim doim osmonda“.

## MAQTANCHOQLAR

Toshbaqaga	— Men Bosh baqa.
Der Qurbaqa:	Sen hech vaqo...
— Men zo‘r baqa.	Bir-birini
Sen bir chaqa.	Xo‘p kamsitar.
Bo‘sh kelmasdan	Maqtanishib
Der Toshbaqa:	Dil o‘ksitar.

## QARG‘ANING „NASIHATI“



Qarg‘asanmi, qarg‘aday  
Tutgin doim o‘zingni.  
Bilib boplab cho‘qigin  
O‘zga qushlar ko‘zini.  
Tovuqlarni qiyratsang,  
Birontasi ko‘rmasin.  
Aslo qarg‘a zotidan  
Gumon qilib yurmasin.

## ZARPECHAK

Yashash uchun  
Tekinga,  
Chirmashasan  
Ekinga.  
O‘ylamaysan  
Bir ishni,

Hech yaxshilik  
Qilishni.  
Turgan-bitgan  
Bahilsan.  
Shu sababli  
Zahilsan.

## GUGURT

Bir qutida ellikta cho‘p,  
Turibmiz bo‘lib to‘p-to‘p.  
Hammamiz o‘tyurakmiz,  
Odamlarga kerakmiz.

Bizni chaqib o‘ynamang,  
Ermak qilib qiynamang.  
O‘t bo‘lsak ham garchi  
biz,  
Yong‘inlarga qarshimiz.

## NOK

Nok deydi shirin, bolday  
Qolibman pishib,  
Qo‘rqaman, daraxtdan  
Ketmayin tushib.  
Endi sho‘x bolalar  
Silkitsa chatoq.  
Shamolga to‘ktirmay  
Terib ol, o‘rtoq!



## BULOQCHA

Qaynab oqar buloqcha,  
Go‘yo jaji yurakcha.  
Zavqlanib qiqirlaydi,  
Gullar ko‘ngli yayraydi.

Yo‘l izlaydi „go‘dakcha“,  
Bo‘lmayin deb ko‘lmakcha.  
Mitti qadam tashlaydi,  
Olg‘a oqa boshlaydi.

## TOVUQ TUXUM QILGANDA



Tuxum qo'ygach  
Sen har choq,  
Nega deysan  
Qo-qo-qoq?..  
— Tezroq xabar  
Top, deyman,  
Tuxum senga  
Bop, deyman.  
Bo'lmasin deb  
Palag'da,  
Netay, jonim  
Halak-da!

## JO'JACHA

Chipor jo'jacha,  
Chopar jo'jacha.  
Don-dunni izlab  
Topar jo'jacha.

To'pidan ajrab  
Adashgan zamon  
Chirqillab yelar  
Onasi tomon.

## AVTOBUSDA

— Bo'lma buncha anqov-yalqov,  
g'o'r bola,  
Manov cholga joyni bo'shat,  
tur, bola!  
— Joy kerakmi, Sizga bobo, —  
deb so'rasam,  
Dedilarki, qariganingda  
turarsan.



## ANQOV

Buzib ari uyasini,  
Ko'rsatmasdan qochdi Vali  
qorasini.

Ishlatmadi miyasini,  
Sanab bo'lmas ari chaqqan  
yarasini.

## SHUMTAKALAR

Xayoliga kelganidan  
Tolmaydigan shumtakalar.  
Aslo o'zi bilganidan  
Qolmaydigan shumtakalar.

Shumtakalar, shumtakalar,  
Tantiq, erkatoy ukalar.  
Jiyanchalar-u akalar,  
Bir-biriga dum takalar.

Erta-yu kech o'yinqaroq,  
Darsdan qochgan shumtakalar.  
Surishtirib, qilsa so'roq,  
Boshi shishgan xum, takalar.

Beg'uborsiz, begunohsiz,  
Soddagina shumtakalar.  
Ayb qilsangiz ko'p no'noqsiz,  
Bo'yni egik, jim takalar.

## HALOL YASHAGAN ODAM

Ikki jajji qizaloq	Kim bularni bilmasa,
Bir-biridan kuyunchak:	Nodondan battar,
— Uyatni bilasanmi?	gumroh.
— Hayoni bilasanmi?	Suvdagi baliqdan ham,
Katta bo'lsang, eng avval	Osmondagi qushdan
Vijdonli bo'lasanmi?	ham,
— Haqiqatni tan olmay,	Eng pokiza, eng toza,
Yolg'on gapirish gunoh.	Imonli, vijdoni pok,
	Halol yashagan odam.

## ILK YOLG'ON

Bilmay u kim berganin firib,  
Mish-mishchilar gapiga kirib,  
Vas-vas bosib, ilk bor gupirib  
Qo'rganini yolg'on gapirib.

Shundan o'zin to'xtatolmasmish,  
Yolg'on gapi tinib qolmasmish.  
Yolg'on aytib aslo tolmasmish,  
Chin gapi hech rivoj olmasmish.

Agar bot-bot aytmasa yolg'on,  
Zimziyoday bo'larmish jahon.  
Ichi yonib, pishib ketarmish.  
Yorilguday shishib ketarmish.

Bir pufakday sezarmish o'zin,  
Qo'rqinch qoplab olarmish ko'zin.  
Yolg'onlarga bir kun qorilib,  
Oh, ketmasam, dermish, yorilib.

## YUTUQ CHIQSIN

(Hazel)

O‘yinlarda yutuq chiqsin —  
„Avtomobil“ yoki „gilam“.  
Bundan-da zo‘r, bundan go‘zal,  
Shodlik yutay men bir olam.

Ukacham-u singilchamga,  
Aql hamda odob chiqsin.  
Yer-u ko‘kni charaqlatib,  
Handon kulib oftob chiqsin.

Oyimlarga tabassumlar,  
Quvonch chiqsin dadamlarga.  
Bu yutuqdan ko‘ksim to‘lib,  
Maqtanayin odamlarga.

Buvimlarga, bobomlarga  
Zo‘r, mustahkam sog‘liq chiqsin.  
Akamlar-u opamlarga  
Sevinch, ko‘ngli chog‘liq chiqsin.

Istagim shu, har odamga,  
Biron yaxshi yutuq chiqsin.  
Kulgusini unutganga,  
Hech bo‘lmasa qitiq chiqsin.

## GAP TARQATIB TAN OLMAS

Sinfimizda Nigora-chi,  
Duv-duv gap-so‘z, nog‘orachi.  
Hiyla qilib, qo‘shib-chatib,  
Yurar doim gap tarqatib.

Chuvalashib shubha, gumon,  
Ko'ngil xira,  
Dillar xufton.  
Bugun tushki ovqat payti  
Nega Toshni deding „daydi“.  
Desam, der: — Hech deganim yo'q,  
Qo'rqqanidan uradi do'q.  
Uy ishini ko'chirvolib,  
Der: — Ko'chirdi mendan Tolib.  
Hayron bo'lib, qotib boshi,  
Tolib deydi kelib g'ashi:  
Ishlab bersang masalani,  
Senga to'nkar kasalini.  
Bilsang agar, kecha Ramz,  
Gulnor, seni dedi, semiz.  
Dildorani oriq dedi,  
Jahongirmi „quruq“ dedi.  
O'tgan kuni ko'rganimda,  
Bog' ko'lida yurganimda,  
Shahnozani deding baxil.  
Hech kim bilan bo'lmas ahil.  
Ikkalasi duch kelgan payt,  
Deyman, endi to'g'risin ayt...  
Tuhmat qilma, deydi, xo'sh-a,  
Hammamizdan saxiy o'sha...  
Seni esa ko'rganim yo'q,  
Bog' ko'lida yurganim yo'q.  
Sen tarqatgan bo'htoningni  
Tuturuqsiz yolg'oningni.  
Endi bo'lsin chegarasi.  
Har narsaning bor chorasi.  
Do'stlaring-la sen ahil bo'l,  
Do'stlaring-la yorug'dir yo'l.

---

## MUNDARIJA

Jonajon O'zbekiston .....	3
Hilpira bayrog'im .....	3
Vatanni kuylagan dil .....	4
Mard bo'laman .....	5
Vatanim — tinchlik bog'i .....	5
Do'stlik jo'shar .....	6
May yaxshi .....	6
Sayyora .....	7
Chamanimning guliman .....	7
Vatan .....	7
Baxtim kulgan .....	8
Armiyamiz mustahkam .....	8
Kichik chegarachi .....	8
Baland uching uchuvchilar .....	9
Yurtparvarlik — mardlar ishi .....	10
Aytganlarim lof emas .....	10
Mustahkam oila .....	13
Alifbe bayrami .....	14
Qalam deydi .....	14
Quyosh bola, oy bola .....	15
Birinchi qo'ng'iroq .....	16
Navoiylik bolalar .....	16
Bahorga yordam .....	17
Sel .....	18
Yaproqlar .....	18
Qizg'aldoqlar .....	19
Bulbuljon .....	20
To'rg'ay qo'shig'i .....	20
Tushimda qush ko'rdim .....	21
Onajonim oq suti .....	22

Kaptarlar .....	22
To'rt fasl .....	23
Boychechagim .....	24
Qaldirg'och .....	24
Uchib keldi qushchamiz .....	25
Suv qadri .....	26
Payvand qildik .....	27
Yoz keldi .....	27
Chiroyli yoz .....	28
Rasm darsida .....	28
Yechgan edim .....	29
Kech kuz .....	29
Chanoqlarda kulganingda .....	30
Chiroy baxsh etar .....	30
Do'stlik kerak .....	31
O'ylayman .....	31
Yonlariga chopaman .....	32
Sarishta qiz .....	33
Vijdon qiynasa .....	33
Soat .....	35
Ezgulik qilay deb .....	35
To'lqinjon .....	36
Muz nega yiqitadi .....	36
Unutmayman .....	37
O'zingizdan o'rganar .....	38
Gapini tinglasa .....	39
Shudring .....	39
Maza qilish yuradi .....	40
Mushugimning odati .....	41
Sветофор .....	41
Tovus .....	42
Afsona .....	42
Xarxashachi .....	43
Kulgular .....	43
Tovuqlar yotog'i .....	44
Chumchuqlar .....	44

Aqlli barmoqlar .....	45
Nega yayrab ko'paymaydi .....	45
Tog' faxri .....	45
Maqtanchoqlar .....	46
Qarg'aning „nasihati“ .....	46
Zarpechak .....	47
Gugurt .....	47
Nok .....	47
Buloqcha .....	47
Tovuq tuxum qilganda .....	48
Jo'jacha .....	48
Avtobusda .....	48
Anqov .....	49
Shumtakalar .....	49
Halol yashagan odam .....	50
Ilk yolg'on .....	50
Yutuq chiqsin .....	51
Gap tarqatib tan olmas .....	51

84(50)7  
Q-20

**Qambar Ota**

**Quyosh bola oy bola: she'rlar/ O. Qambar.**  
— T.: „O'qituvchi“ NMIU, 2014. 56 b.

ISBN 978-9943-02-582-0

**UO'K: 821.512.133-1**  
**KBK 84(50)7**

*QAMBAR OTA*  
**QUYOSH BOLA, OY BOLA**

**Bolalar uchun she'rlar**

*«O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent — 2014*

Muharrir *F. Qosimova*  
Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*  
Texn.muharrir *S. Nabiyeva*  
Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*  
Musahhah *T. Mirzayev*

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 04.03.2013. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 13 shponli. Tayms garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi. Shartli b.t. 3,25.

Hisob-nashriyot t. 2,72. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma №122-14.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Yangishahar ko'chasi, 1- uy.  
Shartnoma № 07-12-12.